



Jondor shevasidagi bazi qarindosh-urug‘chilikka oid so‘zlar

Boltayeva Mahfuza Shukrulla qizi

Buxoro davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi
va jurnalistika kafedrasи o‘qituvchisi

m.boltayeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu axborotda Jondor tumanida yashovchi aholi tomonidan qo‘llaniladigan qarindosh-urug‘chilikka oid dialektal so‘zlar tasnif etilgan. Ularning har biriga alohida to‘xtalib, qo‘llanilishi va vazifasi haqida ma’lumot berilgan. Quyida keltirilgan qarindosh-urug‘chilikka oid dialektal so‘zlarda asosan fors-tojik tilining ta’siri ko‘proq seziladi.

Kalit so‘zlar: sheva, adabiy til, etimologiya, ma’noviy guruh, leksika.

Аннотация: В данной информации классифицированы диалектные слова, относящиеся к родству и родству, используемые жителями Джондорского района. Каждый из них рассмотрен отдельно, дана информация об их использовании и функциях. Влияние персидско-таджикского языка более заметно в следующих диалектных словах, связанных с родством.

Ключевые слова: диалект, литературный язык, этимология, семантическая группа, лексика.

Abstract: In this information, the dialectal words related to kinship and kinship used by residents of Jondor district are classified. Each of them is discussed separately, and information about their use and function is given. The influence of the Persian-Tajik language is more noticeable in the following dialectal words related to kinship.



Key words: dialect, literary language, etymology, semantic group, vocabulary.

Dialektologiya til tarixini o'rganishda ham ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy qimmatga ega bo'lgan ma'lumotlarni beradi. Chunki eng qadimgi va qadimgi turkiy til asosida XIV-XV asrlarda shakllangan eski o'zbek adabiy tili bugunga qadar – XXI asrning birinchi o'n yilligigacha qanday rivojlanib borganini, tilimizga oid bo'lgan qoidalar, qonunlarning amal qilinishini faqat shu sohadagi ilmiy tadiqotlar orqali bilib olamiz. O'zbek tilshunosligida dialektologiya keng miqyosda o'rganilgan va o'rganilib kelinmoqda. F.Abdullayev, A.Ishayev, B.Jo'rayev, S.Ibrohimov, M.Mirzayev, Y.Jumanazarov, M.Buronov, A.Mamatovlar dialektologiya sohasining rivoji uchun o'z hissalarini qo'shdilar hamda areal lingvistika bosqichi uchun material yaratish vazifasini asosiy maqsad qilib oldilar.

Bu esa dialektologiya fani til tarixi bilan hamkorlikda ish olib boradi deganidir. Chunki, xalq tilida oldingi davrda qo'llangan so'z va qo'shimchalarining ishlatalishi tez-tez uchrab turadi. Markaziy shaharlardan chetdagi shahar va tumanlarda yashovchi kishilar, asosan, keksalar nutqini kuzatish dialektoglarga ko'plab qiziqarli materiallar beradi. Tog' va cho'llarda aholi istiqomat qiladigan joylar uzoqligi tufayli o'zlarining xarakterli dialektal xususiyatlarini o'zgarishsiz saqlashgan hamda avloddan avlodga olib o'tishmoqda. Bu hol ko'proq sheva vakillari nutqiga xos individual xususiyatlardan hisoblanadi.

U yoki bu ma'nodoshlar qatoriga kirgan so'zlarning ba'zilari adabiy tilda va lahjalarda uchramasligi mumkin. Shevadagi bunday ma'nodoshlar ma'no va talaffuzi jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Masalan, o'zaro mustahkam bog'langanlik, ma'nolarini ifodalash uchun o'zbek adabiy tilida qarindosh, urug', avlod singari sinonimlar qo'llanilsa, qipchoq shevalarida ushbu so'zlar keng qo'llanilishi bilan bir qatorda tamir, zat, tuvishqan kabi so'zlar ham keng qo'llaniladi.

Jondor shevasi ham o'zining bir qancha leksik xususiyatlari bilan ko'zga tashlanadi.



Ushbu hudud shevasining ma’noviy guruhlari noyob leksik birliklarga ega. Ulardan qarindosh-urug‘chilik so‘zlarini quyidagi jadvalda ko‘rib chiqamiz.

Nº	Sheva	Adabiy til	Izoh
1.	Yangamullo	Kelinoyi	1. Akaning xotini (uka va singilga nisbatan); 2. Yoshi o‘ziga nisbatan katta bo‘lgan ayolga (o‘zga ayolga) nisbatan qo‘llanadi.
2.	Bova	Bobo	1. Otaning yoki onaning otasi (nabiraga nisbatan). 2. Yoshi o‘ziga nisbatan ancha katta bo‘lgan cholga (o‘zga cholga) nisbatan qo‘llanadi.
3.	Moma, biyi, bibi	Buvi	1. Otaning yoki onaning onasi (nabiraga nisbatan). 2. Yoshi o‘ziga nisbatan ancha katta bo‘lgan kampirga (o‘zga kampirga) nisbatan qo‘llanadi.
4.	Amakmullo, bovamlo, Bovamullo, bova	Qaynota	Erning otasi uning xotiniga nisbatan va xotinning otasi uning eriga nisbatan).
5.	Dommot, do‘mmo t	Kuyov	Qizning eri (qizning ota-onasi, aka va opasiga nisbatan).
6.	Opocho	Opa	Yoshi o‘ziga nisbatan katta bo‘lgan ayolga nisbatan qo‘llanadi.
7.	Ambacha	Amma	Otaning opasi yoki singlisi (jiyanlarga nisbatan).



8.	Yangacha	Kelinoyi	1. Akaning xotini (uka yoki singilga nisbatan); 2. Yangi kelgan kelinga nisbatan qo'shni va qarindoshlarning chaqiruvi
9.	Oyjon, oyijon	Qaynona	Erning onasi uning xotiniga nisbatan va xotinning onasi uning eriga nisbatan).
10.	Yazna	Pochcha	Opaning eri.
11.	Doyi	tog'a	Ayolning aka-ukalari (uning bolalariga nisbatan).
12.	Nana	Ona	Farzandi yoki farzandlari bo'lgan xotin (o'z tug'gan farzandlariga nisbatan).
13.	Apa	Opa	bir ota-onadan tug'ilgan farzandlar ichida o'zidan kichiklarga (ukalarga, singillarga) nisbatan katta qiz.
14.	Qudobiyi		Ayol qudaga nisbatan qo'llaniladi.
15.	Qudobova		Erkak qudaga nisbatan qo'llaniladi.
16.	Xesh	Qarindosh	Bir avlod-ajdodga mansub bo'lgan kishilar, ota va ona tomonidan bo'lgan shaxslar (biri boshqasiga nisbatan).
17.	Qaynapa, apamullo, Apamlo		Erning opasi(xotiniga nisbatan).
18.	Qaynaka, akamlo, Akamullo		Erning akasi(xotiniga nisbatan).



19.	Qaynuka, ukamullo, Ukamlo		Erning ukasi(xotiniga nisbatan).
20.	Ambamlo, ambamullo		Erning ammasi(xotiniga nisbatan).
21.	Xolamlo, xolamullo		Erning xolasi(xotiniga nisbatan).
22.	Oyamullo, oyamlo		
23.	Dig'ech	Ovsin	Erning aka yoki ukasining xotini

O‘g‘uz va qipchoq shevalarida ona o‘rnida opa so‘zidan foydalilaniladi Ushbu jadvalda qarindosh - urug‘chilikka oid bazi shevaga xos so‘zlar to‘plandi va izohlandi. Ularning bazilarida o‘ziga xoslik va turli xususiyatlarni ko‘rish mumkin. Misol uchun mullo so‘zi mulla yani ilm beradigan degan ma’noni anglatadi. Masalan tojiklar o‘qimishli kelinga nisbatan kelimullo,yangamullo deb murojaat qilishsa, o‘qimishli bo‘lmagan kelinga nisbatan kelin, yanga so‘zini qo‘llashadi.

Buxoro, xususan Jondor tumanida esa o‘qimishli bo‘lsa ham bo‘lmasa ham mullo so‘zini qo‘shib yangamullo, kelimullo deb atashadi.

Buxoroning ko‘pgina tumanlarida kelinoyini yanga, yangamullo deb atashadi.

Ammo Jondorda katta kelinoyini yanga, yangamullo deb atashadi.



Jondor shevasi o‘zbek shevalari bo‘yicha to‘plangan faktik materiallar “O‘zbek shevashunosligi” va “O‘zbek tili tarixi” darslarida o‘zbek adabiy tilining tayanch dialektlari (qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalari)ning tarixiy ildizlarini bilish va ulardan xabardor bo‘lish, talabalarning o‘zbek tilining qadimiy tillardan biri ekanligi to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘lishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Buxoro viloyatining Jondor shevasi o‘ziga xos leksik xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Ushbu hudud shevasi fors-tojik tili hamda o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasini ta’siri ostida shakllangan. Hudud shevasida fors-tojik tilining ta’siri turli qarindosh-urug‘chilikka oid so‘zlar misolida namoyon bo‘ladi. Qarindosh-urug‘chilik shevasiga xos jihatlarni aniqlash orqali o‘zbek tilining tarixiy shakllanish jarayoni hamda bu tilning qanday tillar bilan aloqada bo‘lganligi haqida xulosalar chiqarish imkoni yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва диалектлари. - Т.: Фан, 1963. –Б. 78.
2. Kilichev b.E. Til tizimi va ma`noviy munosabat muammosi. Monografiya. –Buxoro, Buxoro nashr. 2022. – 118 b.
3. Kilichev B.E. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. O‘quv qo‘llanma. –Buxoro, Durdon, 2023. – 212 b.
4. Kilichev B.E. Onomastika. O‘quv qo‘llanma. –Buxoro, Durdon, 2023. – 180 b.
5. Kilichev B.E., Boltayeva M.Sh. Jondor tuman shevasining ayrim ma’no guruhlari haqida/ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 391) Jan.2023.
6. Kilichev B.E., Safarova M.Z. The Concept of Totemism and Ethnonym. Central asian journal of literature, philosophy and culture. Volume: 03 Issue: 05 May 2022.
7. Мирзаев М.М. Ўзбек тилининг Бухоро групга шевалари: филология фанлари доктори дисс. – Тошкент, 1965 – 461-б.



INNOVATIVE PUBLICATION

Journal of Effective

Vol.2 №5 (2024). May

innovativepublication.uz



Learning and Sustainable Innovation

8. Рахмонов Н.С. Ўзбек тили Навоий вилояти шевалари морфологик хусусиятларининг лингвоареал тадқиқи: филол.фанл...фалсафа докт. диссер. – Самарқанд, 2018. – 164 б.
9. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 2004. Б.125.
10. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек ҳалқ шевалари. -Т.: Фан, 1962. Б. 320
11. funktsionirovaniya-sovremennoykh-britanskikh-dialektov-na-material.
12. <https://www.dissercat.com/content/sotsiokulturnye-osobennosti-funktsionirovaniya-sovremennoykh-britanskikh-dialektov-na-material>
13. <https://www.dissercat.com/content/balkharskii-dialekt-lakskogo-yazyka>
14. <https://www.dissercat.com/content/fonologicheskie-sistemy-izhorskikh-dialektov>